

Termiz shahrida biologik faol qo'shimcha mahsulotlar nusxasini ishlab chiqarib sotayotgan yashirin sex aniqlandi



Termiz shahrida biologik faol qo'shimcha mahsulotlar nusxasini ishlab chiqarib sotayotgan yashirin sex aniqlandi

Departamentning Termiz shahar bo'limi tomonidan o'tkazilgan tezkor tadbirda fuqaro S.M. xaridor J.ga 86 dona "Al Hadaya" (150 ming so'mdan) va 100 dona "Androgard" (250 ming so'mdan) nomli mahsulotlar nusxalarini firibgarlik yo'li bilan 40 mln so'mga sotgan vaqtida ushlangan (https://t.me/Department_uz/2433).

Fuqaroning "Kattabog'" MFY hududidagi xonadoni ko'zdan kechirilganda, bu yerda yashirin sex tashkil etgani aniqlanib, 152 turdagi har xil yog' mahsulotlari, bo'sh idishlar, yorliqlar ishlab chiqarishda foydalanilgan noutbuk va rangli printer ashyoviy

dalil sifatida olingan.

Mazkur holat yuzasidan 168-moddasi (firibgarlik), 186-moddasi (xavfsizlik talablariga javob bermaydigan tovarlarni o'tkazish maqsadini ko'zlab ishlab chiqarish) va 228-moddasi (hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalar tayyorlash, ularni qalbakilashtirish, sotish yoki ulardan foydalanish) bilan jinoyat ishi qo'zg'atilib, tergov harakatlari o'tkazilmoqda.

Image not found or type unknown



Image not found or type unknown

